

Fransuz Tili Darslarida Leksik Ko'nikmalarni Shakllantirish Va Mustahkamlash

X. B. Akbayeva

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti katta o'qituvchisi

Maratova Ulzada

Menejment fakulteti, logistika yo'nalishi, 1-kurs talabasi, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Annotatsiya: Til o'rganish insoniyat jamiyatining eng muhim sohalaridan biridir. Til muloqot vositasi sifatida tabiiy muhitda yoki uyushgan sinfda mashq qilinishi mumkin. Til hodisalari haqidagi bilimlar nazariy jihatdan o'rganiladi. Bugungi xalqaro munosabatlar dunyosida tillarni bilish va ko'p tillilik katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: leksika, lingvistik xususiyatlar, ilmiy kategoriya, til birliklari, nutq, ko'nikma, tadqiqotchi, malaka hosil qilish, tanlash, tasnif, taqsimot va taqdimot bosqichlari.

Leksikologiya umumiy, xususiy, tarixiy va qiyosiy bo'linadi. Xorijiy tillarda umumiy leksikologiya deb ataladi, bu umumiy tilshunoslikning har qanday tilning lug'atini o'rganadigan bo'limi bo'lib, leksik universallarga tegishlidir. Umumiy leksikologiya leksik tizim tuzilishining umumiy qonuniyatlari, dunyo tillari lug'at boyligining faoliyati va rivojlanishi masalalari bilan shug'ullanadi.

Fransuz tili leksikasining lingvistik xususiyatlari uni o'rgatishga, o'rganishga ta'sir qiladi. O'qituvchi bu xususiyatlardan ijobiy unumli foydalansa, maqsadga erishishi osonlashadi. Fransuz tili leksikasining lingvistik xususiyatlarini 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Fransuz tilining o'ziga xos lingvistik xususiyatlari;
2. O'quvchining ona tili, rus tili va boshqa xorijiy tillar leksikalari bilan taqqoslaganda kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlar [1].

O'qituvchi fransuz tili leksikasini o'rgatishda talabalarning til tajribalarini hisobga olishi zarur. Talaba dastlab o'z ona tilining so'zlarni talaffuz qilishni, yozishni, o'qishni, ular orqali tinglab tushunib, gapirishni o'rganadi. Buning natijasida talabada o'z fikrini o'zbek tilida og'zaki va yozma bayon qilish ko'nikma va malakalari, tajribalari ortadi hamda ularga o'xshash tovushlarni, so'zlarni talaffuz qilish, o'qish, yozish, nutqda qo'llash til tajribasi, ko'nikmalari hosil bo'ladi. Talaba ana shu ko'nikma va malakani, tajribani ko'r-ko'rona fransuz tilini o'rganayotganda unga ko'chirishi mumkin. Talabaning o'zbek tili leksikasi bo'yicha til tajribasi fransuz tili leksikasi talaffuzini, yozilishini o'rganishga, ma'nosini ochishga, qo'llanishini o'rganishga ta'sir qiladi. Bu ta'sir ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin [2].

Talabalarning ona tili tajribasi fransuz tili leksikasini o'rganayotganda quyidagi holatlarda ijobiy ta'sir qiladi;

- a) so'zlarga qo'shimchalar qo'shish bilan yangi so'zlar yasalişining ikki tilda ham mavjudligi; Travail–travailler; ish-ishlamoq.
- b) ikkita so'z qo'shish orqali yangi so'zlar yasalişining ikki tilda ham mavjudligi; quelque chose—biror narsa

Talabaning ona tilidagi til ko'nikmalari quyidagi holatlarda salbiy ta'sir qilishi mumkin:

a) talaba so'zlarni qo'llab, o'z fikrini bayon qilishda xuddi ona tilidagidek tuzadi. Vaholanki, o'zbek tilining gap tuzilishi umuman fransuz tiliga to'g'ri kelmaydi.

Masalan: "Mening akam maktabda ishlaydi" gapini "Mon frère travaille à l'école" ўрнига

"Mon frere ecole travaille" ko'rinishida noto'g'ri tuzishi mumkin, ya'ni, gapni o'zbek tili tajribasi ta'sirida tuzadi [3].

b) talabalar fransuz tilidagi matnni o'qiyotganlarida ham konversiya leksik interferensiya keltirib chiqaradi, ya'ni so'zlarda harflarning o'qilmasligi "beaucoup", "aujourd'hui".

v) so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lishi "beaucoup"; 1) ko'p; 2) juda;

g) konversiyaning mavjudligi;

d) o'zbek tilidagi bitta ma'noni fransuz tilida bir nechta so'z orqali ifodalanishi yoki teskarisi.

Bu til tajribalarini hisobga olmaslik fransuz tili leksikasini o'rganishda talabalarga halaqit beradi, chalkashtiradi, chet tilini o'zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi. Ularni hisobga olish o'qituvchidan mas'uliyat va mahorat talab qiladi. Til tajribalari mustahkam bilim berishda, ko'nikma va malaka hosil qilishda muhim o'rin tutadi. Bu tajribalarning ta'sirini hisobga olmaslik metodik xato hisoblanadi [4].

Chet tili o'qitish metodikasining fan sifatida o'z nazariyasi, amaliyoti tarixi va bor.

Chet tili o'qitish mazmunining ham ta'lim mazmuni tarkibiga kiruvchi ilmiy kategoriyasi o'z nazariy va amaliy tomonlari, tarixiy manbalari bo'lib, tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Ta'lim mazmunini o'rganish shuni ko'rsatadiki, chet tili o'qitish mazmunining nazariy tomonlari metodist olimlar tarafidan faol tekshirilib kelinsada, mazkur metodik tushuncha turlicha talqin etilmoqda.

Chet tili o'qitish mazmunining tarkibiy qismlarini tadqiq etish muhim nazariy izlanishlar sirasiga kiradi. O'qitish mazmuni qanday qismlardan tashkil topishi o'qitish maqsadlariga uzviy bog'liq holda hal etiladi. Chet tili o'qitishning amaliy maqsadi (nutq faoliyati turlarini egallash)da muayyan til materialini qo'llash hamda til birliklari nutq ko'nikma va malakalarining shakillanishida ishtirok etishida aniq chegaralar qo'yish kabi metodik jumboqlar yechiladi. Demak, nutq faoliyati doirasi aniqlanadi. Ushbu doira metodikada nutq mavzulari nomini olgan. Nutq mavzulari, nutq malakalari va til materialini chet tili o'qitish mazmunini shakillantirishda teng huquqli tarkibiy qismlar bo'la oladi [5]. Metodika fanida "chet tili o'qitish mazmuni" murakkab atamasini tadqiqotchilar turli hajmdagi tushunchalar bilan fikran bog'lab keladilar. "O'qitish mazmuni" doirasiga, yuqorida nomlari keltirilgan tarkibiy qismlardan tashqari, yana bir qancha tushunchalarni qo'shib yuborishmoqda. Mas. matnlar, mashqlar, ona tiliga yot chet tili tushunchalarini ham ayrim mualliflar asarlarida (q.Umumiy metodika...) uchratish mumkin. Ba'zi metodistlar til va nutq materialini alohida qismlar shaklida tavsiya etishadi. Metodistlar orasida ko'pchilik bilim, malaka va ko'nikma kabi ta'limshunoslikdagi kategoriyalarni ham chet til o'qitish mazmuniga kiritib kelishdi. Metodika manfaatiga zid va ilmiy jihatdan nomaqbul hisoblanuvchi shunga o'xshash bir tomonlama yondoshishlarning muxtasar tanqidiy tahlili talab qilinadi [6].

Matnni o'qitish mazmuniga kiritmaslikni osonlikcha isbotlash mumkin. Nutq mavzulari deganda, ularning mazmunini, yani mavzudan kelib chiqadigan axborot hisobga olinadi. Mavzu axborotni taxminan chamalaydi, lekin o'z ichiga olmaydi, u axborot uchun umumiy ko'rsatkich bo'ladi. Mavzu yuzasidan og'zaki va yozma matnlar hosil qilinadi. Matnda axborot beriladi yoki olinadi. Demak, axborot matn mazmunidir, matn esa mavzuning namoyon etilishidir. Xulosa qilib aytganda, ta'lim mazmuniga "Mavzular" kiritiladi, matn va undan ko'zlanadigan axborot hosilalardir. Mavzu –sababiyat, matn –oqibat, o'z navbatida, matn –sababiyat, axborot esa oqibatdir [7].

Xulosa shuki, mavzu chet til o'qitish mazmuniga muhim tarkibiy qism sifatida kiritiladi. Navbatdagi munozara "til va nutq birliklari" atamasi doirasida o'tkaziladi. Har ikkalasi ham nutqdagi til hodisasini anglatadi. Talabalar til birligi yoki nutq birligi hodisalarini ikkita alohida

o'quv materiali qilib o'rganmaydilar. Tilshunoslar til birligi bilan ish ko'radilar. Uning tadqiqotchisi shu tilda nutqni egallamagan bo'lishi ham mumkin. Demak, talaba nazariyotchi emas, u amaliyot sohibi, chet tildagi nutqni talab doirasida o'rganadi. Til birliklarini bilim sifatida emas, balki ko'nikma va malaka bilan omixta tarzda egallaydi. O'qitish mazmuniga "til materiali" nomli qism kiritilishi nazariy va amaliy jihatdan oqlanadi [7].

Bayon etilgan ilmiy metodik fikr-mulohazalarni hisob-kitob qilib, shuni ta'kidlash joizki, chet tili o'qitish mazmuni tarkibi "nutq mavzulari", "nutq malakalari" va "til materiali" dan iborat. Demak, o'qitish mazmuni uch (mavzu, malaka, material) tarkibli metodik tushunchadir.

Uch tarkibli o'qitish mazmunini metodist olim o'z ijodiy faoliyatida yaratadi, muallim o'quv sharoitida uni talabalarga amaliy faoliyatda o'rgatadi, o'quvchilar esa o'qituvchi rahbarligida darslik yordamida o'zlashtiradilar. Chet tili o'qitish mazmuni, tushunchasi mana bunday ta'riflash mumkin: muayyan mavzular doirasida chet tili birliklarini qo'llab, nutq malakalarining shakllanishini ta'minlashga mo'ljallangan metodik hodisa. Chet tili o'qitish sharoitiga ko'ra bajariladigan bunday metodik tadbir tashkiliy kompressiya deyilishi ma'qul. Metodik manbalarda kvantativ kompressiya (miqdoriy tanlash) nomi berilgan, bu tushuncha qo'yidagicha ta'riflanishi mumkin: chet tili ta'limi maqsadiga ko'ra o'qitish mazmunini tanlash tadbirlari va natijasi. Undan tashqari, talabalarining til tajribasiga ko'ra umumiy minimumning oson va qiyinlari ajratib olinadi. O'quv materialining taqsimoti jarayoni ham hisobga olinadi. Yanada kichraytirilgan (kvalitativ yoki sifat) kompressiyasi nomini olgan bunday metodik chorani –mazkur talabalar uchun alohida e'tibor va kuch talab qiladigan o'quv materialini qayta tanlash (ajratib olish) jarayoni va mahsuli deb qaraladi. Til materiali ichida leksikani, grammatikani, talaffuzni alohida-alohida o'rgatish mazmuni ajratiladi [8].

Til birliklari tanlangandan so'ng ularning tasniflash (tipologiya), taqsimlash va taqdim etish bosqichlaridan o'tishi til materialini o'rgatish mazmuniga olib keladi.

Demak, chet tili o'qitish mazmuni tushunchasi (nutq mavzulari, nutq malakalari va til materiali qismlari) ning har biri o'z navbatida kvalitativ (sifat) kompressiyasidan o'tishi, shundan keyingina talabalar o'rganishi uchun taqdim qilinishi kabilarni anglatadi.

Ta'lim mazmuni, jumladan chet tili o'qitish mazmuni, obektiv voqelikdagi tabiiy va ijtimoiy sohalarda to'plangan tajribalar "okeani"dan tomchilar o'quvchilarga singdiriladi. Astronomik masshtabdagi tajriba "uchquni"- chet til o'qitish mazmunining talabalar tasavvurida g'oyat ulkan dasturiy o'quv materialidir. Boshqacha qilib aytganda, tanlangan o'qitish mazmuni talabalar ko'zi bilan –maksimum (eng ko'p hajmda) o'rganish o'qituvchi nazarida esa-minimum (eng kichik hajmda) o'rgatish materialidir [8].

Chet tili o'qitish mazmunini talabalar o'zlashtirishlari xususiyatlarini etiborda tutib tanlanadi, taqsimlanadi, tasniflanadi va o'rganish uchun taqdim etiladi. Tanlash, tasnif, taqsimot va taqdimot bosqichlari muayyan metodik mezonlar yordamida amalga oshiriladi.

Til materiali tayyorlash va o'zlashtirish bosqichlaridan o'tadi. Tayyorlash bosqichining tanlash davrida o'talabalar ona tili va ikkinchi tildagi tajribalari hisobga olinmaydi. Tasnif, taqsim va taqdim esa talabalar til tajribasidan kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", Toshkent "Sharq nashriyoti" 1998 y.
2. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi", Toshkent "O'qituvchi nashriyoti" 1996 y.
3. Tomson A.I. "Об изучении иностранных языков в средне-учебных заведениях"
4. Педагогический сборник СПб. 1891.
5. Zaripova R.A. "Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma", Toshkent "O'qituvchi" 1986 y.
6. Jabborov V. "Talabalarining chet tilidan mustaqil ishlari", Toshkent "O'qituvchi" 1984 y.

7. Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati” “Xalq ta’limi jurnali” 1999 y. 1-son.
8. Eshmuhammedov R.J. “Inavatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” Toshkent 2004 y.
9. Yo’ldoshev J. “Yangi pedagogik texnologiyalar yo’nalishlari muammolari, yechimlari”. “Xalq ta’limi” 1999 y.